

“Kelajak soati” darsining 1-4 sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

5-mavzu: 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni

Annotatsiya: Yangi O‘zbekistonda o‘qituvchi va murabbiylar maqomi, obro‘si, ustoz va shogird burchi hamda odobi, “Ustoz- otangdan ulug‘” e’tirofining izohi. Kichik yoshli o‘quvchilarda ustoz va uning jamiyat, inson hayotida tutgan o‘rni haqidagi ijtimoiy, ma’naviy tasavvurlarni shakllantirish. Oilada, maktabda, mahallasida bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabatini bildirish orqali ustozga hurmat, uning mehnatini qadrlash, ishonchini oqlash hissini uyg‘otish, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizda ustozlar mavqeyini oshirish haqidagi fikrlarini bolalar tilida tushuntirish.



Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda o‘qituvchi-ustoz tushunchalarini hissiy, obrazli, hayotiy misollar orqali tushuntirish;
2. O‘quvchilarda ustozga hurmat, o‘qituvchi va murabbiylarning mashaqqatli mehnatini qadrlash, ularning bergan ta’lim-tarbiyasini oqlashga bo‘lgan intilish hissini rivojlantirish;
3. Yurtimizda ustoz va murabbiylar obro‘yi, mavqeyini oshirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar haqida ma’lumot berish;



Asosiy g‘oyalar: o‘quvchilar o‘qituvchi va murabbiylarning mashaqqatli mehnatini anglash orqali ularni hurmat qiladilar. Bolalar kichik yoshda bo‘lsalarda yaxshi o‘qishlari, odobi, tarbiyasi bilan ustozlar mehnatini qadrlashlari mumkin. Ustozlarga bo‘lgan hurmat va havas tufayli o‘qituvchilik kasbini egallashga intiladi.

☞ Muallim so‘zi go‘yo oqar suv erur,

Suv oqsa, yer uzra ko‘p ne‘mat unur.

Yusuf Xos Hojib

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy darajada:

- O'quvchilar o'qituvchilik kasbi haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'ladilar;
- “O'qituvchi”, “Ustoz”, “Murabbiy”, “Muallim” so'zlari o'quvchilarga ta'lim-tarbiya beruvchi shaxsni bildirishini tushunadlar.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

- O'quvchilarda ustozni hurmat qilish, qadrlash hissi rivojlanadi.
- O'qituvchilikdek sharaflilik kasbga nisbatan havas tuyg'ulari shakllanadi.
- Ustozlarning mashaqqatli mehnatlari e'tirof etiladi.

3. Amaliy ko'nikmalarda

- Bolalar kichik ijobiy harakatlarini (maktabga o'z vaqtida kelishi, darsda faol ishtirok etishi, bilimlarni qunt bilan egallashi, o'qituvchining dars o'tishiga xalaqit bermasligi) ustozga hurmat deb tushunadilar.
- O'z kundalik hayotida ustozni bergan ta'lim-tarbiyadan foydalanishini ustoz ishonchini oqlash sifatida tushunadi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- Sinfda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida yanada ijobiy muhit shakllanadi: o'zaro hurmat, samimiylilik, ishonch.
- O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida qadriyatlarga asoslangan muloqot paydo bo'ladi.

 **Metapredmet** – bu ta'limda o'quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo'llay oladigan umumiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

- Bolalar ustozlar haqida she'r, qo'shiq va maqollar aytadi (adabiyot fani)
- Mavzuga oid videolavha tomosha qilib, taassurotini aytadi (san'at)
- Berilgan ma'lumotlar yuzasidan o'z fikrini bildiradi (muloqot)
-  Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti: www.milliytarbiya.uz

Mashg'ulotning davomiyligi 45 daqiqa

Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli: bilim beruvchi, suhbat, videolavhalar, o'yin elementlari va qo'shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to'plami:

- ssenariy
- uslubiy tavsiyalar
- videomateriallar
- interaktiv topshiriqlar

Dars tuzilishi:

1-qism. Motivatsion

Darsning birinchi qismining maqsadi – o‘quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo‘lgan motivatsiya mashg‘ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko‘rishi va muhokama qilishiga asoslanadi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda o‘quvchilar mavzuning asosiy ma’nolarini tushunish va ochib berishga yo‘naltiriladi. Shu maqsadda o‘quvchilarga tasviriy materialni tahlil qilish, videolarni ko‘rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g‘oyalarini umumlashtirish, mashg‘ulotga yakun yasash.